

DOI: <https://doi.org/10.5281/zenodo.10919566>

URAL AVTOMOBILINING RIVOJLANISH ISTIQBOLLARI

Sattorov F.J

O‘R Qurolli Kuchlar Akademiyasi o‘qituvchisi

Annotatsiya. Ushbu maqolada ural avtomobilini rivojlanish istiqbollari, ularning o‘ziga xosligi va kamchiliklari, modernizatsiya qilish yo‘nalishlari to‘g‘risida ma‘lumot berilgan.

Kalit so‘zlar: avtomobil, texnika, istiqbol, modernizatsiya, kabina, majmua, texnik xizmat ko‘rsatish, ta‘mirlash, jarayon.

Аннотация. В данной статье представлена информация о перспективах развития Уральского автомобиля, их уникальности и недостатках, направлениях модернизации.

Ключевые слова: автомобиль, техника, перспектива, модернизация, кабина, комплекс, обслуживание, ремонт, процесс.

Annotation. This article provides information about the prospects for the development of the Ural automobile, their uniqueness and disadvantages, and the directions of modernization.

Keywords: car, machinery, perspective, modernization, cabin, complex, maintenance, repair, process.

O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti, Qurolli Kuchlar Oliy Bosh Qo‘mondoni Sh.M. Mirziyoevning 2024 yil 14 yanvardagi Vatan himoyachilariga bayram tabrigidan: “Qurolli Kuchlarimizni isloh etishda bugungi kunda olis va yaqin mintaqalarda murakkab mojaro va to‘qnashuvlar davom etayotgan bir paytda jonajon O‘zbekistonimizda tinchlik va xavfsizlikni ta‘minlash borasidagi ishlarimizni yanada samarali tashkil etishimiz shart. Xususan mudofaa qobiliyatimizni mustaxkamlash, qo‘shinlarni zamonaviy qurol-aslaha va texnika bilan ta‘minlash, bo‘linmalarni boshqarishda axborot texnologiyalarini keng qamrovda qo‘llash, jangovar tayyorgarlik va kasbiy malakani oshirish milliy armiyamizni ustuvor vazifalaridan biri bo‘lib

qoladi. Hech shubhasiz birgalikdagi sayi harakatlarimiz bilan ana shunday ezgu maqsad va marralarga erishishga xalqimizning tinch hayoti, yurtimizning musaffo osmonini ko‘z qorachig‘idek asrab avaylashga har tomonlama qodirmiz” [1].

Hozirgi kunda mintaqamizda qurolli mojarolar va mintaqaviy urushlarda jangovar harakatlarning asosiy xususiyatlaridan biri qurolli qarshilik ko‘rsatishdir. Jangovar mashinalar kolonnalarni harakat yo‘nalishlari bo‘ylab ishonchli xavfsiz o‘tib ketishlarini ta‘minlash uchun vertolyotlar va artilleriya otishlari bilan yopish, yo‘nalishning tor joylarini qo‘riqlash va texnik tadbirlar majmuyi amalga oshiriladi, jangovar mashinalarning o‘t ochish qudratini va himoyalanganligini oshirish, razvedka vositalarini ayniqsa muhandislik vositalarini takomillashtirish.

Ulardan biri bu avtotransportni alohida yurish chaqqonligini oshirishdir. 1994-1995 yillarda Rossiya Federatsiyasi qurolli kuchlarning harbiy sanoati yo‘nalishi bo‘yicha alohida dasturlar ishlab chiqilib hozirgi kunda Ural – “yevro-1”dan, “yevro-2”, “yevro-3”, “yevro-4” avtomobilidan “yevro-5” rusumigacha avtomobillar ishlab chiqarish yo‘lga qo‘yildi (1,2-rasmlar).



1-rasm. URAL “yevro-1”.



2-rasm. URAL“yevro-5”.

O‘zbekiston Respublikasi Qurolli Kuchlari salohiyati yanada oshganligiga quyidagilar bilan e‘tirof etishimiz mumkin: jangovar bo‘linmalar avtomobilda harakatlanib yuqori qo‘mondonlik tomonidan qo‘yilgan vazifalarni tezkor bajarilishini ta‘minlash maqsadida, zamonaviy avtomobillar bilan ta‘minlandi.

Tuzilishi va sxemasini aniq takomillashganligi sababli, avtomobillarni amaliy qo‘llanilishi ijobiy baho oldi. Avtomobillarda oldindan muammo bo‘lib kelayotgan, yoqilg‘i moy mahsulotlari tejashi va harakatchanligi, shuningdek bort kompyuterli va navigatsion apparatlar bilan jihozlanganligi, yuk tashish qobiliyati yuqori ko‘taruvchan, yuqori tezlik va manyovrga ega. Hozirgi kunda ushbu yevro

URAL avtomobillariga YaMZ-236, YaMZ -652, 740.55-280, 740.62-300 rusumli dizel dvigatellar o'rnatilmoqda (3-rasm). Yurish qismi: AVS tormoz tizimli to'xtatish krani kabina old qismi o'rnatilgan va qo'layligi havoni taqsimlash krani orqali tezlik bilan amalga oshirib to'xtatish va boshqarish qo'layligiga ega [2,3].



3-rasm. “Yevro-5» dvigateli aylanish momenti, N*m.

Hozirgi kunda Rossiya Federatsiyasida bir qancha turdagi URAL “yevro-5” oilasiga mansub - 43206, 6370, 5808, 63704K-0111, 63704K-3951, 63095 va 63099 rusumli avtomobillar ishlab chiqarilmoqda. Ayni vaqtda O'zbekiston Respublikasi qurolli kuchlarida ham shu turdagi avtomobillar mavjud bo'lib, ishlatib kelinmoqda. Barcha vazirliklarning jangovar va maxsus vazifalarni bajaruvchi bo'linmalari va harbiy yig'malari ta'minlangan. Olib borilgan tadqiqotlar shuni ko'rsatadiki, ushbu qilingan choralar albatta shaxsiy tarkibni va harbiy yuklarni o'q-otar qurollari va ularning birinchi manzildan ikkinchi manzilga tashishga qulay, ixcham, kichik va manyovirli. O'zbekiston Respublikasida bir qancha avtomobil sanoatda ishlab chiqarilgan avtomobil turlari mavjud bo'lib, ular keng iste'molchilariga ega.

Rivojlangan mamlakatlarning harbiy yuk va maxsus avtomobillarini rivojlanish tajribasini o'rganib chiqish va taqqoslash shuni ko'rsatadiki, hozirgi kunda Rossiya Federatsiyasining mudofaa vazirligi va ichki ishlar vazirligi organlarida, birlashgan qismlar guruhlarini tarkibiga kiruvchi bo'linmalarida URAL va KamAZlar juda ko'p sonda paydo bo'ldi va ekspluatatsiya qilinib kelinmoqda. Ushbu mashinalarni yagona bir xil turdagi avtomobillar ta'minlangan va ishlab chiqilgan qoidaga muvofiq quyidagilarni o'z ichiga oladi:

- avtomobillar to'liq yuqori o'tuvchanli avtomobil, dvigatel va boshqa agregatlari har qanday ob-havo sharoitida ishlatish qo'layligi bilan;
- haydovchi kabinasini to'liq jihozlanganligi bilan;
- yonilg'i baki va transmissiya agregatlarining mustahkamlanganligi bilan;

yuk platformasida tepasi har qanday ob havo sharoitida ochiq yoki yopiq holatda ishlatish va shaxsiy tarkibni oddiy ko'tarib qo'yiladigan o'rindiqlar bilan jihozlangan [5].

Qurollar o'rnatilmagan yukli avtomobillardan foydalanish imkoniyatlari:

aloqa va boshqaruv avtomobillari;

tez yordam mashinalari;

inkassator mashinalari;

xavfli va qimmatbaho yuklarni tashish uchun avtomobillari;

kuzatuv avtomobillari;

harbiy yuklar va shaxsiy tarkibni tashish [6].

1992 yilgacha ishlab chiqarilgan Ural-4320, 4320-Y, 43202 avtomobillari, 1998 yil boshidan shu kunga qadar erishilgan yutuqlari "yevro-5" gacha yukli avtomobillarning taqqoslaganda ustunligi:

foydalanishning effektiv tejamlilikligi;

uzoq foydalanish resursi;

uzellarning yuqori birxillashtirilganligi;

umum foydalaniladigan yo'llarda, shuningdek shaharlarda foydalanish imkoniyati;

servisning oddiyligi hammabopligi.

ko'p funksiyaliligini;

tezkor transformatsiyalash imkoniyatining yuqoriligini;

ishlab chiqarishda ko'p seriyalik imkoniyatining yuqoriligini [7].

URAL avtomobil zavodi tomonidan taxminan bir yil davomida 1200 donadan ko'proq yukli avtomobillar ishlab chiqariladi.

Buyurtma beruvchining xohishiga ko'ra barcha turdagi avtomobil texnikalari ishlab chiqarilmoqda, avtomobil texnikasi shassilariga har xil moduli o'rnatilishi mumkin.

Bularning ichida jangovar, transportli moduli, janglarni boshqarish moduli, hamda moddiy texnik ta'minoti modullari ham bor.

Xulosa. O'zbekiston Respublikasi Qurolli Kuchlarida jangovar salohiyatni yillar davomida shakillanib ilg'or davlatlar armiyalari orasida o'zining sezilarli o'rnini egallamoqda. Zamonaviy qurol-aslaha va harbiy texnikalar yangi taraqqiyot cho'qqilarini egallagan davrda, milliy armiyamiz kuchi va qudratini avtomobil texnikalarimizni mohirona boshqarish, oldindan vaziyat sharoitlarga tayyorgarlik ko'rib, kutilayotgan nosozliklarning oldini olish bilan yuksaltirishga erishish talab etiladi.

Shu maqsadda barcha texnik ta'minot mutahasislari va avtomobil haydovchilari mutaxassislaridan o'z lavozimi, kasbidan kelib chiqib, yuqorida ko'rsatib o'tilgan

muammoli holatlarning yechimini hal etishda jiddiy e'tiborni qaratish lozim. Avtomobillarni jangovar vazifalarni bajarishda jalb etishdan oldin, mazkur texnikalarning imkoniyati darajasini o'zlashtirish, texnik xizmat ko'rsatish tadbirlarini sifatli bajarishni ta'minlaydi.

Foydalanilgan manbalar:

1. O'zbekiston Respublikasi Qurolli Kuchlari tashkil etilganing 32 yilligi munosabati bilan "Vatan himoyachilariga bayram tabrigi" // Vatanparvar gazetasi, 2024. – B. 1-2.
2. Руководство по эксплуатации УРАЛ (экологического класса от "евро-1" до "евро-7"). – СПб, 2022. – 377 с.
3. Техническое описание УРАЛ. Кириш режими: <http://www.novate.ru>. Мурожаат санаси – 14.03.2024.
4. Технология разработки УРАЛ. Кириш режими: <https://ru.wikipedia.org>. Мурожаат санаси – 14.03.2024.
5. «УРАЛ» предложит грузовики класса «Евро-2» <https://www.vedomosti.ru>. Мурожаат санаси – 20.03.2024.
6. Семейство УРАЛ 740.60 (Euro-3) Кириш режими: <https://kamaz.ru/production>. Мурожаат санаси – 25.03.2024.
7. Двигатели УРАЛ Евро-5. Кириш режими: <https://xn--h1aehg.xn--p1ai/zapchasti>. Мурожаат санаси – 25.03.2024.